

Diplomlar o‘z egalariga topshirildi



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida joriy yilning 1-avgust kuni Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Marosimda institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev bitiruvchilarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha mashhur olim, yetuk kadr bo'lishlariga umid bildirib, kelajak hayotlarida ulkan zafarlar tiladi.



Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti bitiruvchilariga diplomlarni institutimizning muhtaram rektori Ibrohim Yo'ldoshev, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo va professor-o'qituvchilar tantanali ravishda topshirdilar.



Barcha bitiruvchilarimizni chin dildan tabriklaymiz va kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Matbuot kotibi